



TEKNOLOGIK YONDASHUVNING TALABA SHAXSI MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

Dehqonova Madina Akbar qizi

*Navoiy davlat universiteti San'at va sport fakulteti Pedagogika nazariyigasi
va tarixi mutaxassisligi yo'nalishi 1-kurs magistranti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada texnologik yondashuv asosida talaba shaxsida ma'naviy yetuklikni shakllantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari tahlil etilgan. Axborot muhiti sharoitida yoshlarning ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ta'lim texnologiyalarining o'rni, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interaktiv metodlar va axborot madaniyatini shakllantirish masalalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, talabalarda ma'naviy bo'shliqni bartaraf etish, axborot xurujlaridan himoyalaniish ko'nikmalarini rivojlantirish, ma'naviy yetuklikni ta'minlovchi kompetensiyalarni bosqichma-bosqich shakllantirishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: texnologik yondashuv, ma'naviy yetuklik, talaba shaxsi, axborot muhiti, ma'naviy-axloqiy kompetensiya, axborot madaniyati, pedagogik texnologiyalar.

Аннотация. В данной статье анализируются педагогико-психологические возможности формирования духовной зрелости личности студента на основе технологического подхода. Научно обоснована роль образовательных технологий, современных педагогических подходов, интерактивных методов и формирования информационной культуры в развитии духовно-нравственных компетенций молодежи в условиях информационной среды. Кроме того, разработаны рекомендации по устранению духовного вакуума у студентов, развитию навыков защиты от информационных угроз, а также поэтапному формированию компетенций, обеспечивающих духовную зрелость личности.



Ключевые слова: технологический подход, духовная зрелость, личность студента, информационная среда, духовно-нравственная компетенция, информационная культура, педагогические технологии.

Abstract. This article analyzes the pedagogical and psychological possibilities of forming students' spiritual maturity based on a technological approach. The role of educational technologies, modern pedagogical approaches, interactive methods, and the development of information culture in enhancing the spiritual and moral competencies of young people in the information environment is scientifically substantiated. In addition, recommendations are developed for eliminating spiritual gaps among students, developing skills to protect against information threats, and gradually forming competencies that ensure spiritual maturity.

Key words: technological approach, spiritual maturity, student personality, information environment, spiritual and moral competence, information culture, pedagogical technologies.

Kirish. Bugungi globallashtirish va raqamlashtirish jarayonlari sharoitida oliy ta'lim tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri — talaba-yoshlarning nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarini, balki ularning ma'naviy-axloqiy yetukligini ham rivojlantirishdan iboratdir. Axborot texnologiyalarining jadal rivoji, internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta'lim jarayoniga chuqur kirib kelishi yoshlar ongiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, texnologik yondashuv asosida talaba shaxsining ma'naviyatini shakllantirish masalasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon oliy ta'lim amaliyotida talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, axborot muhiti sharoitida ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik tizimlarni joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. UNESCO va BMT tomonidan qabul qilingan ta'limga oid dasturiy hujjatlarda ham zamonaviy texnologiyalar orqali



ta'lim sifatini oshirish bilan birga, yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Asosiy qism. Talaba shaxsi ma'naviyatini shakllantirishda texnologik yondashuv mohiyati. Texnologik yondashuv — bu ta'lim-tarbiya jarayonini oldindan rejalashtirilgan, tizimli, natijaga yo'naltirilgan hamda pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etishdir. Ushbu yondashuv talaba shaxsini rivojlantirishda individual, psixologik va ijtimoiy xususiyatlarni hisobga olish imkonini beradi.

Axborot muhiti sharoitida talabalarda ma'naviy yetuklikni shakllantirish texnologik yondashuv orqali quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- axborot bilan ishlash madaniyatini rivojlantirish;
- tanqidiy va innovatsion fikrlashni shakllantirish;
- axborot xurujlariga qarshi ma'naviy immunitet hosil qilish;
- ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish.

Ma'naviy yetuklik tushunchasi va uning pedagogik-psixologik xususiyatlari. Ma'naviy yetuklik — shaxsning har tomonlama kamol topganligi, o'z qarorlari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga ola bilishi, jamiyat hayotida faol va ongli ishtirok etish qobiliyatidir. Ma'naviy yetuk shaxs axloqiy me'yorlarga amal qiladi, mustaqil fikrlaydi, bag'rikenglik, vatanparvarlik, samimiylilik va adolatparvarlik kabi fazilatlar bilan ajralib turadi.

Zamonaviy pedagogika nazariyasida talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni faqat kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilangina cheklanib qolmasdan, balki ularning ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etish kompetensiyasini rivojlantirishni ham taqozo etadi. Bu borada pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar talaba shaxsining ijtimoiy faolligi, mafkuraviy immuniteti va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogika fanida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi asoschilari hisoblangan J.Dyui, K.Rodjers, L.S.Vigotskiy, shuningdek, milliy pedagogika



vakillari R.H.Jo'rayev, N.Saidahmedov, B.X.Xodjayevlarning ilmiy qarashlarida ta'lim jarayonida shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash pedagogik faoliyatning ustuvor vazifasi sifatida talqin etiladi. Xususan, L.S.Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi talabaning ma'naviy rivojlanishini pedagogik qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Talabalarni kasbiy-pedagogik ta'lim jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga tayyorlash texnologiyasi tizimli, uzluksiz va bosqichma-bosqich yondashuvni talab etadi. Mazkur jarayonda axborot-rivojlantiruvchi, muammoli, faoliyatga yo'naltirilgan hamda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarning integratsiyalashuvi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu texnologiyalar orqali talabalarda nafaqat bilimlarni egallash, balki ularni ma'naviy-ma'rifiy faoliyatda amaliy qo'llash ko'nikmalari ham shakllantiriladi.

N.Saidahmedovning pedagogik texnologiya haqidagi qarashlariga ko'ra, texnologik yondashuv ta'lim jarayonining oldindan rejalashtirilgan natijaga yo'naltirilganligini ta'minlaydi. Ushbu yondashuv ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda talabaning mustaqil fikrlashi, ijtimoiy faolligi va mas'uliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarda real hayotiy vaziyatlarga nisbatan tahliliy yondashuv, g'oyaviy xatarlarni anglash va ularga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Axborot texnologiyalarining ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etilishi ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Multimedia vositalari, virtual ta'lim platformalari, vebinarlar va interaktiv mashg'ulotlar orqali talabalar ma'naviy-ma'rifiy mazmundagi bilimlarni chuqurroq o'zlashtiradi hamda ularni kasbiy faoliyatida qo'llashga tayyorlanadi. Bu esa, o'z navbatida, pedagogik jarayonning avtoritar modelidan insonparvarlik va hamkorlikka asoslangan ta'lim modeliga o'tishni ta'minlaydi.



Shu nuqtayi nazardan, talabalarni kasbiy-pedagogik ta'lim jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga tayyorlash texnologiyasi talaba shaxsining intellektual, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur texnologiyaning samarali qo'llanilishi bo'lajak pedagoglarning kasbiy yetukligi, ijtimoiy mas'uliyati va ma'naviy barkamolligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot muhiti va ma'naviy bo'shliq muammosi. Axborot asri sharoitida yoshlar turli xil axborot oqimlari ta'sirida qolmoqda. Noto'g'ri, noxolis va zararli axborotlar talaba ongida ma'naviy bo'shliqni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli, texnologik yondashuv asosida ta'lim jarayonida talabalarning axborotni tanlash, tahlil qilish va baholash kompetensiyalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar, keys-stadiylar, muammoli vaziyatlar va media savodxonlikka yo'naltirilgan mashg'ulotlar orqali talabalar axborotdan oqilona foydalanish, sog'lom axborot muhitini yaratish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Talaba shaxsining ma'naviy yetukligini shakllantirish masalasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining qator normativ-huquqiy hujjatlarida belgilab berilgan. Jumladan:

- 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son Qaror;
- 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son Qaror;
- "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-637);
- "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" (VMQ 1059-son);
- 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi".

Mazkur hujjatlarda yoshlarning ma'naviy kamoloti, ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirish va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Xulosa. Texnologik yondashuv talaba shaxsi ma'naviyatini shakllantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Axborot muhiti sharoitida ma'naviy



yetuklikni ta'minlash uchun ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, interaktiv metodlardan foydalanish, ma'naviy-axloqiy mazmundagi o'quv materiallarini boyitish zarur.

Talabalarda ma'naviy yetuklikni shakllantirish bosqichma-bosqich, uzluksiz va tizimli ravishda amalga oshirilishi lozim. Bu jarayonda pedagog, ota-ona va jamoatchilikning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tavsiyalar. Ta'lim jarayonida axborot xurujlaridan himoyalanişga yo'naltirilgan texnologiyalarni joriy etish; pedagogik-psixologik fanlar mazmunini ma'naviy-axloqiy komponentlar bilan boyitish; keysli vaziyatlar va real hayotiy misollar asosida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish; zamonaviy axborot muhitida talabalarning axborot madaniyatini oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ–5040-son Qarori. – Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF–5847-son Farmoni. – Toshkent, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 1059-son Qarori. – Toshkent.
5. Saidahmedov N.S. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
6. Jo'rayev R.H. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
7. Xodjayev B.X. Ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv. – Toshkent: Innovatsiya rivoji, 2020.



8. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
9. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916.
10. Rogers C.R. Freedom to Learn. – Columbus: Merrill Publishing Company, 1983.
11. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
12. Qodirov B.R., To‘xtayeva D.A. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishning pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan, 2021.